

**MA'MURIY NAZORAT O'Rnatilgan shaxslarga sud organlari
tomonidan belgilangan cheklovlarga rioya etilishini nazorat
qilish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari**

Narzullaev Asilbek O'tkir o'g'li

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi,

313 guruh kursanti.

Tashtemirov Anvar Aliqulovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,

Ma'muriy huquq kafedrası dotsenti.

E-mail: anvartoshtemirov05031979@gmail.com.

Annotatsiya. *Maqolada IIO lari profilaktika inspektorlarining ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxsar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish faoliyatining mazmuni, ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari, tashkiliy va huquqiy asoslari, mavjud muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf etishning usul va shakllari yoritib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *ma'muriy nazorat, ma'muriy cheklov, nazorat ostidagi shaxs, sud qarori, jamoat tartibi, tajovuz, huquqbuzarlik, jinoyat, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ta'sir chorasi, ijtimoiy himoya.*

O'zbekiston Respublikasi qonunlarini buzgan va ularga amal qilishni istamagan huquqbuzarlar, ularni buzishga ko'proq moyil bo'lgan shaxslar, shu jumladan ma'muriy nazoratda turuvchi ilgari sudlangan shaxslar orasida huquqiy tarbiyani yaxshilash borasida samarali profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish davr talabidir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, bunda bir qancha normalar belgilab o'tilgan bo'lib, Konstitutsiyaning ikkinchi bo'lim, 18-moddasida shunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi. E'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar" Ushbu qoidalardan kelib chiqib, ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslar bilan ishlash jarayonida ham ularning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini poymol qilish mumkin emas.

Profilaktika inspektorlarining ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular majburlov xususiyatiga ega.

Ichki ishlar organlarning ushbu faoliyat yo'nalishlaridan, ular tomonidan amalga oshiriladigan majburlash choralari qo'llash tartibi, asoslari va maqsadidan kelib chiqib, quyidagi xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:

1) ichki ishlar organlari faoliyatida ma'muriy majburlash choralari qo'llanilishi tegishli sohaviy xizmatlarning asosiy funksional vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bularga, asosan, huquqbuzarliklarning profilaktikasi, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati xavfsizligi, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish kabi xizmatlar kiradi;

2) ichki ishlari organlar tomonidan majburlash choralari qo'llashning huquqiy asoslarini qonunchilik hujjatlari va idoraviy-normativ hujjatlar (nizom, yo'riqnoma) tashkil qiladi;

3) maxsus ma'muriy majburlash choralari hisoblangan jismoniy kuch ishlatish (qo'l jangi, sambo usuli), maxsus vositalar (qo'l kishanlari, rezina tayog'i), zarur hollarda qurol ishlatish kabi ta'sir choralari qo'llash alohida tartibi mavjud;

4) ma'muriy majburlash choralari qo'llash vakolatiga ega bo'lgan ichki ishlar organlari xodimlari o'z mansab vakolatlarini amalga oshirishda qonunchilik hujjatlari bilan alohida huquqiy muhofazalangan. Masalan, ichki ishlar organlari xodimlarining g'ayrihuquqiy harakatlarni to'xtatish to'g'risidagi talablarini bajarmaslik ma'muriy javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat deb hisoblanadi yoki ichki ishlar organi xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

Ma'muriy nazorat quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- ma'muriy nazorat qonun va qonunosti hujjatlarining talablarini amaliyotga joriy etish bo'yicha ichki ishlar organlari ma'muriy faoliyatining shakllaridan biri;

- ma'muriy nazorat xuquqbuzarliklarning oldini olish, uni to'xtatish maqsadida amalga oshiriladi;

- ma'muriy nazorat qonun talablarini jamoat ta'siri yoki davlat majburlov choralari vositasi yordamida xuquqbuzarliklardan muhofaza etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 apreldagi "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi Qonunining maqsadi jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat (bundan buyon matnda ma'muriy nazorat deb yuritiladi) bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ma'muriy nazoratning asosiy vazifasi jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar tomonidan xuquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida ularga yakka tartibda profilaktik ta'sir ko'rsatishdan iboratdir.

Ma'muriy nazorat o'rnatish zarurligi to'g'risidagi asoslantirilgan taqdimnoma sudga quyidagilar tomonidan yuboriladi:

sud tomonidan o'ta xavfli residivist deb topilgan shaxslarga nisbatan — ularni ozod etishdan kamida bir oy oldin jazoni ijro etish muassasasining boshlig'i tomonidan;

jazoni ijro etish muassasalarida turgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoxud har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxslarga nisbatan, agar ular jazoni o'tash davrida belgilangan tartibda saqlash rejimini qasddan buzuvchilar deb topilgan bo'lsa, — ularni ozod etishdan kamida bir oy oldin jazoni ijro etish muassasasining boshlig'i tomonidan;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarga nisbatan — sudlanganlik holatining tugatilishi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi muddatlari doirasida ichki ishlar organining boshlig'i tomonidan ushbu shaxslar jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilganidan keyin bir yil ichida ikki yoki undan ko'proq ma'muriy xuquqbuzarliklarni sodir etganligidan dalolat beruvchi materiallar asosida.

Ma'muriy nazorat o'rnatish zarurligi to'g'risidagi taqdimnomada ma'muriy nazoratni o'rnatish zarurati, o'rnatiladigan ma'muriy cheklovlar yuzasidan takliflar va o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatilishi mumkin bo'lgan shaxsning o'zi tanlagan yashash joyi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Agar jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilayotgan shaxsning ma'lum sabablarga ko'ra aniq turar joyi bo'lmasa, jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati unga yashash joyi bilan ta'minlash, doimiy yoki vaqtinchalik propiska qilish hamda ishga joylashishga yordam berishni so'rab, shuningdek nogiron yoki og'ir kasalliklarga chalingan shaxslarni davolash masalalarini oldindan hal qilish to'g'risida tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlariga, ichki ishlar organlariga va sog'liqni saqlash muassasalariga iltimosnoma yuboradi.

Ma'muriy nazorat o'rnatish zarurligi to'g'risidagi taqdimnoma olingan paytdan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining sudyasi tomonidan sud majlisida ichki ishlar organi vakilining majburiy ishtirokida va o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatish zarurligi to'g'risidagi taqdimnoma ko'rib chiqilayotgan shaxs ishtirokida yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

Agar o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatish zarurligi to'g'risidagi taqdimnoma ko'rib chiqiladigan, sud majlisi o'tkaziladigan vaqt va joy haqida xabardor qilingan shaxs uzrsiz sabablarga ko'ra sud majlisiga kelmasa, shuningdek sud majlisini boshqa kunga qoldirish to'g'risida iltimosnoma taqdim etilmagan bo'lsa, taqdimnoma sud tomonidan ushbu shaxsning ishtirokisiz ko'rib chiqilishi mumkin.

Sudning ma'muriy nazorat o'rnatish to'g'risidagi qarorida ma'muriy nazoratni o'rnatish uchun asos, uning muddati va nazorat ostidagi shaxsga nisbatan o'rnatiladigan ma'muriy cheklovlar ko'rsatiladi. Agar ma'muriy nazorat jazoni ijro etish muassasasidan ozod etish chog'ida belgilangan bo'lsa, sudning ma'muriy nazorat o'rnatish to'g'risidagi qarorida nazorat ostidagi shaxs tanlagan yashash joyiga yetib keladigan muddat ham ko'rsatiladi.

Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilayotgan shaxsning aniq yashash joyi ma'lum bo'lmagan taqdirda, sud uning ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanishidan oldin yashagan oxirgi yashash joyi bo'yicha ma'muriy nazorat o'rnatish to'g'risida qaror qabul qiladi. Nazorat ostidagi shaxsning yashash joyi bo'lmagan taqdirda, sud mahalliy davlat hokimiyati organlariga nazorat ostidagi shaxsni turar joy bilan ta'minlash choralarini ko'rish majburiyatini yuklash to'g'risida qaror chiqaradi.

Ma'muriy nazorat olti oydan bir yilgacha muddatga o'rnatiladi. Ma'muriy nazorat muddati ma'muriy nazoratni o'rnatish to'g'risida sud tomonidan qaror chiqarilgan paytdan e'tiboran, ma'muriy nazorat jazoni ijro etish muassasalaridan shaxsni ozod etish chog'ida o'rnatilgan hollarda esa, nazorat ostidagi shaxs tanlagan yashash joyiga yetib kelgan paytdan e'tiboran hisoblanadi.

Ma'muriy nazorat muddatining o'tishi quyidagi hollarda to'xtatib turiladi:

nazorat ostidagi shaxsga qidiruv e'lon qilinganda;

nazorat ostidagi shaxs sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilganda.

Nazorat ostidagi shaxs ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan taqdirda, ma'muriy nazorat muddati ichki ishlar organining taqdimnomasi bo'yicha sud tomonidan olti oygacha bo'lgan muddatga, lekin sudlanganlik holatining tugallanishi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Profilaktika inspektorlari nazorat ostiga olinganlarning xulq-atvorini ular yashayotgan va ishlayotgan joyda muntazam nazorat qilib borishlari, nazorat ostiga olinganlarni tanlangan istiqomat joyida propiska qilish va ularni ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etish yuzasidan zarur choralar ko'rishlari, ular tomonidan jamoat tartibi buzilishi, boshqa fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazilishini oldini olishlari hamda yo'l qo'ymasliklari, ularga nisbatan belgilangan cheklashlar buzilganligi to'g'risida qonunda belgilangan tartibida bayonnomalar yozishlari shart.

Profilaktika inspektorlari ma'muriy nazoratini amalga oshirishda nazorat ostiga olingan shaxsning xulq-atvori to'g'risida ish beruvchidan, mazkur shaxs o'qiyotgan joyning ma'muriyatidan, u yashayotgan joydagi jamoat birlashmasi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organidan, shuningdek fuqarolardan ma'lumotlar talab qilib olish huquqiga ega.

Shuningdek, nazorat ostida bo'lgan shaxsni ishga joylashtirish va unga turmush sharoiti yaratib berish to'g'risida tegishli davlat, jamoat va xo'jalik tashkilotlari oldiga masala qo'yish, nazorat ostiga olingan shaxsni suhbat uchun ichki ishlar organiga chaqirish, zarurat bo'lganda bunday suhbatlarni ish beruvchining, jamoat birlashmasi va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining vakillari, nazorat ostiga olingan shaxsning qarindoshlari, shuningdek suhbat mavzuiga aloqador shaxslar ishtirokida o'tkazish, nazorat ostida bo'lgan shaxsdan ma'muriy nazorat qoidalarini ijro etish bilan bog'liq masalalar bo'yicha og'zaki va yozma tushuntirishlar talab qilish, nazorat ostida bo'lgan shaxsning turar joyini soat 06:00 dan 22:00 ga qadar borib ko'rish huquqiga egadirlar.

Profilaktika inspektori nazoratda turuvchining nazorat qoidalaridan bo'yin tovlamasligi va cheklashlarni buzilishiga yo'l qo'ymasligi uchun ogohlantirish ishlarini olib boradi. Nazoratda turuvchining ma'muriy nazorat qoidalarini va cheklashlarga rioya etishini tekshirib borish har oyda kamida ikki marta profilaktika inspektori bilan kriminal va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash xodimi tomonidan jazoni ijro etish muassasalaridan olingan ma'lumotlar, nazoratdagi shaxsning xulq-atvori, turmush tarzi, jinoiy aloqalari va jinoyat sodir etishiga bo'lgan moyilligiga qarab belgilanadi hamda tekshirish natijasi bo'yicha nazorat varaqasi to'ldirib boriladi.

Nazorat ostida turuvchining ichki ishlar organlariga kelib qayddan o'tishi tayanch punktlarida profilaktika inspektori amalga oshiriladi va qayd etish varaqasida qayd etgan xodimning lavozimi, qayd etilgan sana ko'rsatilib, nazoratda turuvchining imzosi qo'ydiriladi.

Ma'muriy nazoratda belgilangan cheklash qoidalarining har bir buzilgan holati bo'yicha profilaktika inspektori xolislar ishtirokida bayonnoma tuzadi va IIB boshlig'i tomonidan belgilangan tartibda tegishli chora ko'rish uchun sudga jo'natadi. Agarda qoidabuzarlik nazoratda turuvchi shaxs yashamaydigan hududlardagi profilaktika inspektorlari tomonidan aniqlansa, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma chora ko'rish uchun mazkur shaxs ustidan nazorat olib boruvchi tuman (shahar) IIBga yuboriladi. Nazorat va cheklash qoidalarini buzilganda ma'muriy choralar ikki oy muddat ichida ko'rilishi kerak.

Nazoratda turuvchi shaxs nazorat va cheklash qoidalarini buzganligi uchun jinoiy javobgarlikka ham tortilishi mumkin. Ma'muriy nazorat ostida turgan shaxs ma'muriy nazorat qoidalarini birinchi marta buzganda unga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 206-moddasiga binoan profilaktika inspektori tomonidan tegishli protsessual xujjatlar va ma'muriy bayonnoma tuzilib sudga yuboriladi va sud

tomonidan ma'muriy javobgarlikka tortiladi. Agar nazoratda turgan shaxs bir marta ma'muriy javobgarlikka tortilgandan keyin ham yil mobaynida yana shunday qoidabuzarlikni ataylab, qasddan sodir etsa, profilaktika inspektori tuman (shahar) ichki ishlar bo'limi boshlig'iga bu haqda bildirib, uni jinoiy javobgarlikka tortish masalasini hal etish haqida tegishli daliliy hujjatlar asosida ma'lum qiladi.

Ma'muriy nazoratda turgan shaxsning hulq atvori ustidan profilaktika inspektorlari nazoratni amalga oshirish jarayoni yaxshi tashkil etilishiga qaramasdan bugungi kunda aynan shu toifadagi shaxslar tomonidan jinoyat sodir etish xolatlari yoki ma'muriy nazoratdan buyin tovlash xolatlari amaliyotda ko'plab uchrab turishi ijobiy xolat emas albatta. Buning oldini olish yoki qandaydir samarali natijalarga erishish uchun profilaktika inspektorlari tomonidan yo'riqnoma asosida ma'muriy nazorat ostida turgan shaxslarning o'rnatilgan qoidalarga rioya qilishlari ustidan belgilangan muddatlarda o'z vaqtida tekshirib, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib borishlari zarur. Ularni o'z vaqtida tekshirmaslik, turmush tarzini nazorat qilmaslik ma'muriy nazorat qoidalarini buzishga olib keladi.

Nazoratda turgan shaxs boshqa hududlarga borganda, o'sha hudud ichki ishlar bo'limining navbatchilik yoki huquqbuzarliklarni oldini olish xizmati tomonidan vaqtinchalik yashash uchun kelgan nazoratda turuvchilar kitobiga qayd etilib, u vaqtincha yashaydigan hududdagi profilaktika inspektoriga kelganligi va ketganligi haqida ma'lum qilinadi. Profilaktika inspektori esa uni vaqtincha yashash joyida turmush tarzi va hulq-atvorini nazorat qilib, uning hudduda bo'lish muddati tugagach ketishini ta'minlaydi.

Ma'muriy nazorat ostida turgan shaxs doimiy yashash joyini o'zgartirganda profilaktika inspektori bu haqda uning yangi turar joyidagi ichki ishlar bo'limi va manzilgohlar idorasini xabardor qiladi. Yangi turar joyidagi ichki ishlar bo'limi esa uch kunlik muddat uning ma'muriy nazorat yig'ma jildini talab qilib oladi. Agarda nazorat o'rnatilgan shaxs tanlagan yashash joyiga kelmasa profilaktika inspektori uni yo'qligi aniqlagan vaqtdan boshlab uch kun ichida qidirib topish choralari ko'radi va xolislari ishtirokida bayonnoma tuzib, ichki ishlar bo'limining boshlig'i yoki uning o'rinbosariga bu haqda ma'lum qiladi. Shaxsni nazorat qoidalaridan bo'yicha tovlab, yashash joyiga kelmaganli bo'yicha yig'ilgan hujjatlar sudga yuborilib, sud qaroriga ko'ra unga nisbatan qidiruv e'lon qilinadi.

Ma'muriy nazoratni to'xtatishda belgilangan muddat tugashi, shaxsning sudlanganlik muddati tugagan yoki olib tashlanishi, jinoiy javobgarlikka tortilishi va majburiy davolanishga yuborilishi bilan bir qatorda nazorat ostida turgan shaxsning ahloqan tuzalish yo'liga qat'iy ravishda o'tib olib, namunali hulq-atvorda bo'lishi ham inobatga olinadi.

Nazorat ostida turgan shaxs qat'iy tuzalish yo'liga o'tib, ishda va turmushda namunali hulq-atvor ko'rsatsa, ya'ni, ichki ishlar organlari chaqiruviga binoan ko'rsatilgan muddatlarda borib, ularning qonuniy talablariga binoan og'zaki va yozma tushuntirishlar bersa, ish yoki yashash joyi o'zgarda yoki tuman (shahar) hududidan tashqariga chiqayotganligi haqida nazoratni amalga oshiruvchi xodimga o'z vaqtida (bir kecha kunduz davomida) xabardor qilsa, boshqa aholi manzilgohlariga borganida va u yerda bir kecha-kunduzdan ko'proq vaqt turib qolganida mahalliy ichki ishlar bo'limidan ro'yxatdan o'tib tursa, qo'llanilgan cheklashlarga rioya qilib borgan bo'lsa rag'batlantirish tarzida unga nisbatan muddatidan ilgari nazoratni to'xtatish to'g'risida profilaktika inspektori tomonidan tuman (shahar) ichki ishlar bo'limi boshlig'iga ma'lum qilinadi tomonidan sudga asosli taqdimnoma kiritiladi. Sud tomonidan

ushbu taqdimnoma o'n kunlik muddat ichida ko'rib chiqiladi va ma'muriy nazoratni to'xtatish haqidagi qaror nazorat ostida turgan shaxsga e'lon qilinadi.

Ma'muriy nazorat ostida turgan shaxsga doir hisobga olish hujjatlari ichki ishlar organlarida nazorat to'xtatilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida saqlanadi. Ma'muriy nazorat yig'ma jildlari esa huquqbuzarliklarning oldini olish xizmati boshlig'ida (seyfida) saqlanadi va ushbu xodim uni yuritish uchun ma'sul hisoblanadi. Ma'muriy nazorat yig'ma jildi ichki ishlar bo'limining arxivida uch yil davomida saqlanadi va belgilangan tartibda yo'q qilinadi.

Ma'muriy nazoratga rioya etilishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va joylarda unga bo'yso'nuvchi prokurorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Sudning ma'muriy nazorat o'rnatish to'g'risidagi qarori prokurorning noroziligi bilan yoki yuqori sud idorasi tomonidan nazorat assosiz ravishda belgilangan deb e'tirof etilgan taqdirda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ma'muriy nazoratni belgilash hamda amalga oshirish bilan bog'liq shikoyat va arizalar ichki ishlar organlari boshlig'i, prokuror yoki yuqori sud idorasi doirasida ko'rib chiqiladi va hal etiladi. Ta'kidlash joizki, ma'muriy nazorat ustidan berilgan shikoyat uning ijrosini to'xtatish uchun asos bo'laolmaydi va sud tomonidan ma'muriy nazoratni to'xtatish to'g'risida qaror chiqarilgunga qadar davom etdiriladi.

Jinoyatga oid statistik ma'lumotlar va amaliyot tahlillariga tayanib xulosa qilish mumkinki, ma'muriy nazorat ilgari sudlangan shaxsga nisbatan nafaqat tarbiyaviy va profilaktik xarakterga ega bo'lgan tadbir bo'libgina qolmay, balki residiv jinoyatlarning oldini olishdagi muhim va samarali tadbirlardan biri bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.

2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 apreldagi "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi O'RQ-532-son Qonuni.

4. Таштемиров А. А., Комилов А. М. Ў. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.

5. Таштемиров А. А. и др. Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 25. – С. 32-40.

6. Таштемиров А. А. и др. Нуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 454-461.

7. Tashtemirov A., Baxtiyorov S. Profilaktika inspektorining jinoyat ishlar bo'yicha sudlar bilan hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 38-42.

8. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash //Наука и технология в современном мире. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 59-61.

9. Tashtemirov A., Raxmonqulov S. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bilan ishlash faoliyatining tushunchasi //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 62-67.

10. Tashtemirov A., Sadullaev M. Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda iolari profilaktika inspektorlarining bojxona xizmati bilan hamkorligining tashkiliy-huquqiy asoslarI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 50-53.

11. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan yoshlar bilan ishlash faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 51-52.